

**МАHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING “IKKI EMAS TO‘RT TIL LOZIM”
MAQOLASIDA XORIJİY TİLLARNING O‘Z DAVRIDAGI AHAMIYATI**

*Xamidova Munisa Shokir qizi,
Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabining o‘quvchisi
+998912148148*

Annotatsiya. Ushbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas to‘rt til lozim” maqolasining tahliliga bag‘ishlangan. Maqolada xorijiy tillarning o‘z davridagi ahamiyati va badiiy talqini ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Maqola, xorijiy til, badiiy talqin, forsiy, arabiyl, badiiy tasvir vositasi.

Annotation. This article is dedicated to the analysis of Mahmudhoja Behbudi's article "Not Two, but Four Languages Are Necessary." The article reveals the significance and artistic interpretation of foreign languages in their time.

Keywords. Article, foreign language, artistic interpretation, Persian, Arabic, means of artistic representation.

Аннотация. Эта статья посвящена анализу статьи Махмудходжи Бехбуди "Не два, а четыре языка необходимы." В статье раскрывается значение и художественная интерпретация иностранных языков своего времени.

Ключевые слова. Статья, иностранный язык, художественная интерпретация, персидский, арабский, средство художественного изображения.

Mahmudxo‘ja Behbudiyl asl ismi Mahmudxo‘ja ibn Behbudiyo‘ja ibn Solihxo‘ja ibn Niyozxo‘ja Behbudiyydir. XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyondasi, jadidchilik harakatlarining peshvozlaridan biri hisoblanadi. U yetakchilik qilgan jadid harakatining asosiy g‘oyasi “Ta’lim va ma’rifatni isloh qilish”, “Xorijiy tillarni o‘rganish”, “Ayollar ta’limi va ularning jamiyatdagi o‘rni” hamda “Mustaqillik va milliy uyg‘onish” bo‘lgan.

Adib jadidchilik bilan birga adabiyotga ham ulkan hissa qo‘shgan. Biz uning eng mashhur maqolalaridan biri bo‘lgan “Ikki emas to‘rt til lozim” maqolasini tahliliga kirishamiz.

Mahmudxo‘ja Behbudiyl “Ikki emas to‘rt til lozim” maqolasidagi asosiy mazmun chuqur ma’noga ega bo‘lib, maqolada keltirilishiga ko‘ra har bir inson diniy va dunyoviy bilim egasi bo‘lishni istasa, ushbu to‘rt tilni: turkiy, forsiy, arabiyl hamda rusiy tilni bilmog‘i zarur. Yuqorida sanab o‘tilgan bu to‘rt til Behbudiyning zamonasida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Sababi, maqolasini o‘z hayotiy misollari bilan yoritgan. Shunga ko‘ra o‘sha davrda so‘zlashuv o‘zbek tilida ya’ni turkiy tilda, madrasa va udabo tili fors tilida, she’riy va diniy

kitoblar arabiylarda bo‘lgan. Lekin o‘qish darsliklari forsiy nazmiy va nasriy kitoblar orqali amalga oshirilgan.

Shuningdek, Behbudiyning maqolasiga ko‘ra, amir va xonlarning qonun, farmoyishlari turkiy tilda bo‘lgan. Shunday ekan adib bu uch til bilan birlashtirishda rusiy tilni ham ulug‘lagan. Chunki forsiyni bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa’diy, “Masnaviy”dan qanchalik lazzat olsa, turkiy tilni bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy kabi qator shoirlardan zavq olishini ta’kidlagan. Bundan tashqari Tolstoy, Jyul Vern va shu kabi zamonaviy yozuvchilarning asarlarini turkiy tildagi tarjima orqali mutolaa qilishlarini yozadi. Yuqoridagi rus asarlarini bilish uchun turkiy tilni bilish keraklini aytadi. Jadidning fikriga ko‘ra, turkiy tilni bilgan kishi zamonni biladi.

Maqolaning mazmuniy tahliliga kelsak, undagi asosiy mazmun hozirgi kun bilan ham juda bog‘liq. Masalan, yurtimizdagi oliygoohlarga kirish imtihonlarining deyarli barchasida xorijiy til sertifikati bor abituriyentlar uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bundan tashqari ta’lim sohasidagi biror ishga qabul uchun ham til bilish talab etiladi. Yana kundalik hayotimiz yoki sayohatlar uchun ham xorijiy tillarni bilgan yaxshi. Adib ushbu maqolasida ham til o‘rganish borasida yuksalish kerakligini targ‘ib etgan. Behbudi yoki maqolasida “Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatg‘a xizmat ilmsiz bo‘lmaydi...” deydi.

Xulosa qilib aytganda, jadid ushbu maqolasida ilm bilan yuksalishni ko‘zlaydi. Bir til bilan cheklanmay, bir necha tillarni o‘rganish kerakligini ta’kidlaydi. Uning bu kabi fikrlashi shubhasiz, albatta. Adibing “Bizg‘a lozimki, o‘z na’fimiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarinda o‘qiyuluk” jumlesi orqali anchagina ma’no anglashimiz mumkin. Inson o‘z hayotini yaxshilashi uchun ham ilm olmog‘i lozim.zero, dono xalqimiz “Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni “ deydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmudxo‘ja Behbudi. Ikki emas, to‘rt til kerak. Oyna, 1913
2. Rustamov, X. "O‘zbek dramaturgiyasi tarixi" – Toshkent: Yangi asr avlod, 2015.
3. Ismoilov, S. "O‘zbek adabiyoti va jadidchilik" – Toshkent: Adabiyot, 2018.
4. www.mutolaa.com
5. www.jadid.uz